
SEKTOR RAHBARI TASHABBUSI BILAN...

????Barchamizga juda yaxshi ma'lumki, davlatimiz rahbari tomonidan daraxt ekish bo'yicha "Yashil makon" umumilliy loyihasi doirasida "dolzarb 40 kunlik" aksiyasi e'lon qilindi. ???Aktsiya doirasida Respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani kabi Rishton tumani mahallalarida ham ko'chat qurish ishlari jadal olib borilmoqda. Bugun tumanimizdagi "Dasht Pandigon" MFY Yoshlar ko'chasi 54 uyda yashovchi fuqaro Xolisxon Yunusovning xonadoni va Yoshlar ko'chasiga 3-sektor rahbari X.Toshpulatov tashabbusi bilan yashil makon dasturi buyicha archa ko'chatlari ekildi. ♣Ona tabiatni asrash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Azal-azaldan ko'chat ekkan, bog' yaratgan insonlarga xalqimiz alohida ehtirom bilan qarab, ulug'lab keladi. ???Ko'chat ekish, gulu nihollarni ko'paytirish bu musaffolik, ekologik muhit sofligi hamda ona tabiatga g'amxo'rlik va insoniylikning yuksak namunasidir. Amalga oshirilayotgan bu kabi ezgu ishlar ona tabiatni asrashga undashi bilan ahamiyatlidir.

2022-11-21 16:28:12